

*Xudayqulov Ravshan Rahmatullayevich**Osiyo xalgoro universiteti magistranti*

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TABIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda ekologik tabiyani shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, ekologik tarbiyaning tarixiy shakllari, ekologik vaziyatning dolzarb pedagogik masalalari, oqibatlari, asoslari haqida fikr va mulohazalar yuritadilar.

Kalit so'zlar: ekalogiya, atrof-muhit, xulq-atvor, faoliik, yer osti, suv, o'rmonlar, guruh, inson.

Inson yashaydigan tabiiy sharoitlar majmui "atrof-muhit" deb ataladi. Tabiat ana shu muhitning ajralmas qismidir. Inson qadami yetgan joy obod bo'ladi. Nimaga ishora qilinayotganini anglashimiz qiyin emas. Bugun atrof-muhit, ekologiya bilan bog'liq muammo shunday fikrlashga majbur etmoqda. Insoniyat taraqqiyoti atrof-muhitga shu darajada ozor yetkazmoqdaki, endi o'ch olish navbati tabiatga keldi. Bu ko'ngilga g'ulg'ula solish uchun aytilmayapti. Yuzaga kelgan global muammolar shundan dalolat bermoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish muammolarining dolzarbliji hammaga ma'lum. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish ko'p jihatdan insonlarning savodxonlik darajasi, ekologik saviyasiga bog'liqdir. Ekologik bilimlarni egallash ekologik ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish va uni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish sohasida ma'lum tadbirlar o'tkazilmoqda. Mamlakatimizda ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning uzlusiz kontseptsiyasi ishlab chiqilgan. Lekin bu borada kamchiliklar hali ko'p. Jumladan, 1992 yil 9-dekabrdan qabil qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunida ushbu masalaga kam o'rin berilgan. Ekologik axborot tizimi yetarli darajada shakllammagan. Bu muammolar yaqin yillarda ichida ijobjiy hal qilinishi lozim. Ta'lim tizimining barcha bosqichida ta'lim-tarbiya oluvchilarning ekologik va sanitariya-gigienaga oid savodxonliklarini mustahkamlash zarurdir. Shu muammolarni davlat tomonidan qonuniy hal etilishi va nazorat qilinishi maqsadida 2019 yil 15 yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risida"gi Nizomi tasdiqlandi. Unga ko'ra: yer, yer osti, suv, o'rmonlar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish, tevarak-atrofni toza saqlash, uni muhofaza qilish va qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazorati tashkil etildi. [1].

XXI asr - ekologik muammolar, ularning kelib chiqishini o'rganish va oldini olishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish davridir. Har bir inson ona tabiatga zarar yetkazmasdan uni o'zgartirishi, uning ne'matlaridan oqilona foydalanishi, kelajak avlodga boricha yetkazish kabi mas'uliyatli va sharafli ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozimdir.

"Ekologiya-so'zi grekcha so'z bo'lib, oikos-yashash muhiti, turar joy va logos – ta'limot ma'nosini bildiradi. Ya'ni, ekologiya mavjudotlar uchun yashash sharoitlari mos kelishligi haqidagi ta'limotdir [2]. Ekologiya terminini birinchi bo'lib 1866-yilda buyuk olmon olimi Ernst Gekkel tomonidan ilk bor fanga kiritilgan va olim buni tirik organizmlarning atrof-muhit bilan munosabatini belgilash uchun taklif etadi. U "Organizmlarning umumiy morfologiyasi" deb nomlangan kitobida ekologiyaga quyidagicha: "Ekologiya - tabiatni iqtisodiy jihatdan tadqiq qilish orqali hamma tirik organizmlarning organik va noorganik muhit unsurlari bilan birga,

uning ta'sir doirasida turgan antagonistik va noantagonistik aloqadorlikda bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosi o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishi", deya ta'rif bergen.

Z.Sattorov o'zining "Ekologiya" o'quv qo'llanmasida ekologiyaga - tirik jonzotlarning yashash sharoiti va ularning o'zlarini turgan muhit bilan o'zaro yashab murakkab munosabatlari va shu asosda tug'ilgan qonuniyatlarni o'rganishi xususida fikr bildirib o'tadi [3].

Ekologiyaning predmeti - bunday bog'lanishlarning zamon va makonga qarab o'zgarib borishini o'rganish, ya'ni atrof-muhitdagi tabiiy muvozanatni monitoring qilishdan iboratdir.

Ekologik bilim – bu tabiat, uning tuzilishi, o'zgarishi, rivojlanishi, jonli- jonsiz tabiat holati, o'simliklar va hayvonot olami ularning bir-biri bilan bog'liqligi, atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarni, tabiiy boyliklar, ularning mavjudligi sifati va sonini, xillarini, hajmini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanishni o'rganishdan iboratdir. Tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatida yangi – industrial jamiyat boshlanishi bilan ekologiya fani majmuali fanga aylana boshlagan. Ekologiya fani mazmunan kengayib, tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi fanlarni o'z ichiga qamrab olgan majmuaviy fanga aylangan. Bu fan atrof-muhitga aloqador bo'lgan geologik, geografik, kimyoviy, fizikaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy tushunchalarni ham o'zida mujassam qila boshlagan. Natijada, ekologiya fani hayot va biosferaning tashqi va ichki omillar ta'sirida izchil o'zgaruvchan barqarorligi va uning ta'minlanish tuzilmasini o'rganuvchi fanga aylandi. Ekologiya fanining tarixi tabiiy fanlarning taraqqiyot bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir. Qadimgi yunon olimi Aristotel (eramizgacha bo'lgan 384-322 yillar) dunyoning paydo bo'lishi haqida fikr yuritib, tabiatdagi barcha mavjudot bir-biri bilan bog'liqdir, degan. U 500 dan ortiq hayvon turlarining yashash tarzi to'g'risida yozib, unda ekologiyaga oid ko'plab fikrlarni olg'a surgan. Aristotelning shogirdi Teofrast Erezyskiy (eramizdan oldingi 378-280 yillarda yashagan) o'simliklar dunyosini o'rganib, ularning turli sharoitda har xil shaklda (daraxtsimon, butasimon va o'tsimon) bo'lishlarini qayd qilgan. Ularning inson hayotidagi rolini alohida ta'kidlagan. Gippokrat (eramizgacha 460 - 370 yillar) inson salomatligiga suv, havo va u yashab turgan muhit nihoyatda katta ta'sir ko'rsatishini qayd qilgan edi [4]. Tirik organizmlar hayotining tashqi muhit bilan bog'liqligi qadimdan ma'lum. Antik davrda yashagan faylasuflarning asarlarida o'simliklarni tashqi qiyofasi tuproq va iqlim sharoitlari bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirildi.

XX asr oxirida insoniyatning biosferadagi jarayonlarga ta'siri o'zining yuqori bosqichiga yetdi. Hozirgi avlod uchun mahalliy va ma'naviy ekologik inqirozli vaziyatlar kuzatilmoqda. Bunday murakkab davrda ekologiyaning ilmiy-nazariy, amaliy, ta'limiy, madaniy va axboriy ahamiyatlari tobora ortib bormoqda. Atrof-muhit holatini to'g'ri baholash, zarur tadbirlarning o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash ekologik bilimlarning rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigienik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar ichida pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi. Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi.

Ekologik ta'lim deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik ta'limni shakllantirishda tabiatni muhofaza qilish, uning resurslaridan samarali foydalanish, printsiplarini o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga egadir. Ekologik savodxonlikka erishish yo'lida ekologik bilim darajasini oshirish mamlakatimizda o'z uy va mahallamizda bo'layotgan tabiiy muammolarni anglash va unga ongli munosabat bildirish, atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar to'g'risidagi ma'lumot berish muhim ahamiyatga egadir. Ekologik ta'lim berishda yosh avlodning tabiat va jamiyatga nisbatan ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ekologik nuqtai nazardan munosabat bildirish va ekologik bilimlarini oshirib borish maqsadga muvofiqliр.

Ekologik ta'lim berish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlar orqali ekologik falokatlar sabablarini to'g'ri baholashni o'rgatish, ekologik savodining pastligini aniqlash va turli tashviqot va targ'ibot ishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish zarur sanaladi. O'sib kelayotgan yoshlarning ekologik faoliyati asosiy diqqat markaziga qo'yilmasa, kelajak avlodga ona tabiatning jami ne'matlari to'la-to'kis yetkazib berilmasligi va insoniyat kelajaginining tanazzulga yuz tutishini ta'kidlab o'tish lozimdir.

Ekologik madaniyat-kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his etish tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishga qatnashishga tayyorgarligi hisoblanadi. Fuqarolarda ekologik savodxonlik va madaniyat ijtimoiy ta'lim- tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, mehnat jamoalari, mahalliy boshqaruv organlari, ichki ishlar xodimlari, prokuratura, sud, ommaviy axborot vositalari singari davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Ekologik ong – ekologik tafakkur va ekologik madaniyat bilan uzviy bog'langan. Ekologik tafakkur – agar u o'quvchida maxsus tashkil etilgan o'quv- bilish faoliyati bilan shakllantirilsa, ekologik ongni ishga solishi, ishlatishi mumkin bo'lgan vositaga aylanadi. Ekologik madaniyat ekologik ong tufayli vujudga keladigan insoniy fazilat [5].

Ekologik tarbiya - insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim- tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, mактабда barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Ekologik tarbiya va ta'limni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ular doimo o'zaro aloqada rivojlanadi va shaxsning tabiatga bo'lgan insoniy munosabatlarini tarkib toptiradi. Ekologik tarbiya muammosi O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassalarida mashg'ulotlar va darslar, tabiiy fanlarni o'tish orqali amalga oshirilishi zarur. Ular asosan ikki yo'nalishda olib boriladi. Bolalarda ekologik tarbiya madaniyatini shakllantirish, ularda tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatni uyg'otish va tabiiy fanlarga doir dastlabki ko'nikmalarini ishlab chiqish. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya beruvchi mutaxassislarning ekologik ongi va madaniyatini rivojlantirish.

Maktab va oila bolalarda tabiatga nisbatan noyob moddiy va ruhiy boyliklar manbai sifatida qarash tuyg'usini shakllantiruvchi asosiy vositadir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatib boriladi. Atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy "Bolalarga jonim fido" asarida "Men bolalar "Alifbe"ni oolib, birinchi so'zini g'ijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob-tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim", [6] deb ta'kidlaganidek, bu boradagi barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir. Ekologik tarbiyada o'quvchilarini o'z maktabini, yashaydigan muhiti-shahar va qishloq ko'chalarini ko'kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi ishlarda kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega. Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi.

Ekologik dunyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi. Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar. Bolalar go'daklik chog'laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish hissi sabot bilan singdirilgan.

Oila davrasida farzandlarga “Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi”, deb o’rgatilgan. Ota-bobolarimiz: “Suv – tabiat in’omi, hayot manbai”, - deb bejiz aytishmagan. Ma’lumki, hozir faqat 500 ming km³ ga yaqin chuchuk suv bor xolos. “Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o’zing iste’mol qilasan”, “Pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo‘ladi. Chunki unda ahli mo’minning nasibasi bor” — deb pandu-nasihatlar qilganlar. Masalan, “Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do‘zaxga mahkum etur”, “Dehqonchilik bilan shug‘ullaninglar, dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo‘riqchilarni ko‘paytiringlar”, “Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o’tqazsa, so‘ng uning mevasidan qush yoki hayvon yesa, uning ekinidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi” va hokazo shu kabi ibratli so‘zlar va hadislar xalq orasida mavjud.

“Sharqda tabiat va inson haqidagi ilk saboqlarni Zardushtiyarning muqaddas kitobi “Avesto” beradi. “Avesto” nihoyatda yirik meros bo‘lib, unda barcha sohaga tegishli qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bebafo yodgorlikdir. Undagi asosiy mazmuni inson tabiat unsurlaridan yaralgan noyob, otli, o‘z harakatlari oqibatini anglay oladigan mavjudot bo‘lib, tabiatga nisbatan befarqlik insonga nisbatan befarqlik, tabiat va inson yaratuvchisini tan olmaslik deb hisoblanishidir” [7].

Islomdan avval zardushtiylik dinida tabiatni, xususan, suvni iflos yoki isrof qilgan kishi 400 darra kaltaklangan. Suvga hurmat islom dinimizda ham saqlanib qolgan. Mana shu hurmat ta’sirida xalqda ko‘plab maqollar, rivoyatlar, ibratli hikoyatlar, ertaklar vujudga kelgan. Tabiat va inson to‘g‘risidagi ta’limot, keyinchalik, Sharq uyg‘onish davriga kelganda, ya’ni ilm-fan taraqqiyoti davrida yanada rivojlandi. Sharq falsafasi yetakchisi Abu Nasr Forobiy shunday yozadi: “Dunyo, tabiat xudo tomonidan qisqa muddat ichida yaratilmagan. Tabiatning bu holga kelishiga qadar bir qancha vaqt o’tgan, jarayonlar o’tgan”. U inson tabiat taraqqiyotining mahsuli bo‘lib, xayvonot olamidan farq qiladi, inson – bilish sub’ekti, tabiat esa uning ob’ekti deb biladi. Tabiatning olamdan tashqarida, unga bog‘liq bo‘limgan holda mavjudligiga Forobiy shubha qilmaydi, ob’ekt sub’ektga qadar mavjud bo‘ladi. “Har bir inson o‘z tabiatini bilan shunday tuzilganki, - deydi Forobiy, - u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun juda ko‘p narsalarga muxtoj bo‘lardi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirta olmaydi; ularga erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir – biriga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvি orqaligina odam o‘z tabiatini bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvni mumkin. Abu Ali ibn Sino tashqi muhitning odamlar tanasiga ko‘rsatadigan ta’siri, ular sog‘ligini saqlash, parhez, shaxsiy gigiena to‘g‘risidagi fikrlar alloma tomonidan yaratilgan “Tib qonunlari” asarining bosh g‘oyalari sanaladi. Allomaning inson tanasida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri suv, yer va havoda mo‘tadillikning buzilishi bilan bog‘liqligi, yashash joylarining torligi, ozoda bo‘lmasligi, yuqumli (chechak, vabo isitmasi, yiring, toshma kabi) kasalliklarning tez tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishi, yuqumli kasalliklarning aholi zich joylashgan joylarda havo va boshqa omillar orqali yuqishiga doir o‘gitlari bugungi kunda ham muhim ijtimoiy-tibbiy ahamiyatga egadir. Mutafakkirning “Agar havoda chang va g‘ubor bo‘limganida edi, inson ming yil umr ko‘rgan bo‘lar edi”, degan mashhur iborasi esa o‘quvchilarda havoni ifloslantirmaslik, atrof-muhitni ozoda saqlash va tabiatga ziyon yetkazmaslik ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilonan foydalanish g‘oyalarni keng aholi ommasi yaxshi tushunib yetgandagina bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Shu sababli tabiatni muhofaza qilish xaqidagi bilimlarni yoyish hozirgi vaqtning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomi. 2019 y.
2. Yo‘ldoshev M., F.Xusainova “Tabiatni asrash – insonni asrash” // Boshlang‘ich ta’lim. – Toshkent. – 2007. – 4-son. – B. 43-44.
3. Sattarov V. Umumta’lim mакtablarining V-IX sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish (qishloq xo‘jalik mehnati ta’limi misolida): Ped. fan. nomz diss. avtoref. – Toshkent, 2002. – 22 b.
4. Suravegina I. Teoriya i praktika formirovaniya otvetstvennogo otnosheniya shkol’nikov k prirode v protsesse obucheniya biologii. Avtoref. Diss na sois. uchen. stepen. dok. ped. nauk. Moskva, 1986. – 35s.
5. Avazov SH. “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” darsligi 2- nashr. – T.: «ILM-ZIYO», 2014. – 231 b.
6. Suravegina I. Teoriya i praktika formirovaniya otvetstvennogo otnosheniya shkol’nikov k prirode v protsesse obucheniya biologii. Avtoref. Diss na sois. uchen. stepen. dok. ped. nauk. Moskva, 1986. – 35s.
7. Shonasirova L.T. Vliyanie esteticheskogo vospitaniya sredstvami prirodi na ekologicheskoe mishlenie doshkol’nikov. Diss kand. ped. nauk. Moskva, 1990. – 174 s.